YOSHLARNI O‘Z-O‘ZINI KAMOL TOPTIRISHDA ULUG‘ MUTAFAKKIR QARASHLARINING O‘RNI

Jurayev Sayfiddin Xabibovich
Samarqand viloyati Samarkand tuman kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Ulug‘ sharq mutafakkiri Jaloliddin Rumiyning yoshlarni o‘z-o‘zini anglash borasidagi diniy va dunyoviy ilmdagi ruhiyatni tarbiyalashga oid pedagogik texnologiyasida bugungi globallashayotgan XXI asrdagi yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar, ayniqsa ta’lim va tarbiya borasidagi haqchil qarashlarini biz ilmiy jihatdan va amaliy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.
Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, tarbiya, psixologiya, ideal, ong, ruh.
Аннотация:Мы пытаемся научно и практически проанализировать правомерные взгляды великого восточного мыслителя Джалалуддина Руми на образовательную технологию духовного воспитания в религиозной и мирской науке для самосознания молодежи, возникающие социальные проблемы сегодняшнего глобализирующегося 21 века, особенности образования и воспитание.мы сделали
Ключевые слова: Национальная идея, воспитание, психология, идеал, сознание, дух.
Annotation: We are trying to scientifically and practically analyze the legitimate views of the great Eastern thinker Jalaluddin Rumi on the educational technology of spiritual education in religious and secular science for the self-awareness of young people, the emerging social problems of today's globalizing 21st century, the features of education and upbringing. We have done
Key words: National idea, education, psychology, ideal, consciousness, spirit.

Dono xalqimizning tabiatidagi yuksak ma’naviyat, odob-axloq mezonlari uning g‘oyat boy insoniyligi, hayotiy tajriba va chuqur falsafiy tafakkur bilan sug‘orilgan axloqiy merosida mujassamlashgan. Bu borada o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy g‘oya, milliy ananalar va qadriyatlar ruhida rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Ta’limning milliy yo‘naltirilganligi O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining ustuvor tamoyillaridan biridir. U ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf odatlari bilan uzviy uyg‘unligini, O‘zbek xalqining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarix va madaniyatini hurmatlashga yo‘naltirilgan tarbiya tizimini taqozo qiladi. Milliy –tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy ehtiyoj hamdir. Bu borada sharq mutafakkirlari asarlarini mukammal o‘rganish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish milliy o‘zligimizni saqlashda asos bo‘lishi shubhasiz. Qator sharq mutafakkirlari qatorida Jaloliddin Rumiyning masnaviylarida shaxs va uning jamiyatga bo‘lgan munosabatni o‘rganuvchi psixologiya sohalariga, masalan, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, oila psixologiyasi, din psixologiyasi, etno psixologiya va umumiy psixologiyalarga oid qarashlarni uchratish mumkin.

Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosi, oshishi haqida ham bir qancha fikrlar aytgan.

Odam o‘zini ojiz his qilib, o‘ziga bo‘lgan ishonchini tushirib bu haqida gapirishi, bu noshukurlikdir, deydi. Rumiy o‘z fikrlarini diniy masalalar bilan bog‘lab tushuntirgan. Masalan, o‘ziga yuqori baho beruvchilarni o‘zini Ollohdan ustun qo‘yganlar deb ta’riflaydi.

Umuman, Rumiy ikki toifa shaxslarni qoralaydi: Birinchisi, o‘zini notovon his qilganlarni; Ikkinchisi, o‘zini Xudodek qudratli deb bilganlarni; U aytadiki, inson shunday mavjudotki, biron-bir ishning uddasidan chiqsa, orzulari ro‘yobga oshsa, o‘zini qudrat sohibi

https://wordlyknowledge.uz

deb biladi va kibru g‘urur bilan bu ishlarning hammasini “Akang qarag‘ay qotirib tashladi”, deb olamni to‘zonga qoradi.

Yoki aksi bo‘ladi deydi. Odamning qo‘lidan ish kelmasa, odamsizlikka duch kelganlarida tushkunlikka tushadilar, umidsizlanadilar, o‘z-o‘zlariga ishonchlari tushib ketadi. Ular zulmat va qorong‘ilikka tomon cho‘kib boradilar, bu ish qo‘limdan kelmaydi, uddasidan chiqmayman deb, g‘am-g‘ussaga botadilar. Bunday vaziyatda inson hushini yig‘ib olmog‘i va aql-idroki bilan bu holatdan chiqib ketmog‘i lozim, deydi.

Bolani tarbiyalash, unga ta’lim berish, komil inson qilib voyaga yetkazish Jaloliddin Rumiy masnaviylarida eng dolzarb muammolardan biridir. Shu munosabat bilan ular orasidan yosh davrlari sohalarini o‘rganuvchi psixologiyaga oid fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. Mavlononing fikrlarini yosh davrlari psixologiyasiga, xulqi og‘ishganlar psixologiyasi, umumiy psixologiya, maxsus psixologiya, psixogigiena fanlariga tadbiq etish mumkin. Yosh davrlari va pedagogik psixologiyaga shunday fikr bildiradi: “Kimki haqiqat asrorini anglash darajasiga yetmagan, qobiliyat va idroki hali pishmagan ekan, unga ilohiy sirlar haqida gapirish bekor. Balki uning ma’naviy anglash layoqati darajasida so‘zlash kifoya”.

Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, bolaga ta’lim-tarbiya berayotganda uning yosh davrlari xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning anglash darajasini, individual xususiyatlarini aniqlab, bilim berish lozim. Bularni hsiobga olmasdan yondoshish samarasiz bo‘ladi. Bola berilayotgan ma’lumotlarni tinglasada, anglab bormaydi, tushunmaydi.

Agar xali tishlari chiqib ulgurmagan chaqaloqqa sut o‘rniga non bersang, hech shubha yo‘qki, bechora chaqaloqni nobud qilasan. Shuning uchun bolani ta’lim-tarbiyalashda yosh davrlari va individual xususiyatlarini hisobga olmoq kerak.

Shuningdek, Rumiy o‘smirlik davriga to‘xtalib, ularda mavjud taqlidchanlik xususiyati haqida aytadi. “Taqlidchanlik, keng ma’noda, umuman xayrli hodisa”. Zeroki, insoniyat hayotining o‘zi aslida taqvo. Odam bolasi ilk kunidan buyon taqlidiy suratda yashaydi.

Ammo tor ma’nodagi hayvonsifat taqlidi chinakam fojia. Bu mahdud taqlid odamni o‘zligini anglash, ong va ruhidagi yashirish imkoniyatlar eshigini ochib yuborishga mone’lik qiladi. Natijada ruhiy-aqliy takomil yo‘llari bog‘lanadi.

O‘smirlik davrida ham xuddi shunday. Ular o‘z ideallarini yaratadilar va unga ergashadilar. Ideallarini salbiy hamda ijobiy hislatlari, harakatlari bilan qabul qiladilar.

Rumiy ularni maymunga qiyoslaydi: “Maymun o‘z xatti-harakatida odam amallariga taqlid qiladi. Shuningdek, insonning nafsoniy tabiati, agar bordiyu u jilovlanmasa, bag‘oyat dahshatli ofatdir.

Inson bajarayotgan amalni kuzatib turgan maymun unga ergashgan ko‘yi taqlid qilaveradi. Xuddi shuningdek, maymunsifati kimsalar ham avliyo va anbiyolar xatti-harakatlariga taqlid qilishadi. Ammo har ikki hodisa orasidagi tafovutning chek-chegarasi yo‘q”. Mutafakkir inson xulqidagi boshqa og‘ishishlarni ham ko‘rsatib o‘tadi.

“Hasad, - deydi u, nafsga bog‘liq sifat bo‘lib, kishi o‘zidagi nuqsonni va begonaning kamolotini anglab yetgach, kim-adovat va badhohlikdan bedavo ruhiy dardga giriftor bo‘ladi. Hasadchi hamisha o‘z qurbonini muayyan sifatdan mahrum bo‘lishini orzu qilib yashaydi. Bu dard uni hamisha ta’qid aylaydi. Hasadchi ranj ichida o‘z o‘tiga qovriladi. Hasad murakkab sifat. Uning natijasi xavfli va g‘oyatda og‘ir. U o‘z kamoloti yo‘lida harakat qilmog‘i o‘rniga fazilat sohibining mag‘lubiyatini, halokatini istaydi. Bu poyonsiz g‘am-g‘ussaga aylanadi”.

Keltirilgan ta’rifni hozirgi kun psixologiyasi bilan solishtirsak, xarakter aksentuatsiyasidagi epileptoid tipiga mos keladi. Bunday insonlarni g‘ashiga tegayotgan ob’ektni (odam yoki biron buyumni) urishi, sindirishi mumkin. Barchani o‘ziga bo‘ysundirishni hohlaydi. Konflikt, yopishqoq tafakkur, nafrat va g‘azab ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi agressiyani to‘plantirib boruvchi g‘azabli-g‘amgin kayfiyatga moyillik.

https://wordlyknowledge.uz

Rumiy insonlardagi agressiv holatlarga alohida to‘xtalib o‘tadi. “Insonlar jamiyatda yashash ekan, ular doimo bir-birlariga adovatda, dushmanlikda bo‘ladilar, bir-birlariga zarar yetkazish payida yuradilar, buzg‘unchilik, bosqinchilik qilishga harakat qiladilar.

Aybdorlik, ya’ni birovning aybini qidirmoq odamzotda dushmanlik tuyg‘usini urchitadi. Jamiyatda ixtilof va dushmanlik muhitini yaratadi. Kishilarni bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yadi. Ya’ni, ayb qidirganning ham aybi qidiriladi, uning hech narsasi pinhona qolmaydi. Natijada o‘zaro dushmanlik yuzaga keladi, deydi.

Mutafakkir ichkilikni ham qattiq qoralaydi. Ichkilik - u sukr, ya’ni mastlik deb o‘z masnaviylarida keltirgan. Mastlikdagi psixik holatlar, ularning buzilishi, fiziologik jarayonlar haqida aytib o‘tgan.

Sukr-mastlik aqlni tasarrufdan va insoniy quvvatni aql ixtiyoridan mahrum etuvchi holat. A’zolarning biror kasallikka chalinmagan holatida susayish; shod-hurramlik. Sukr-mastlik aksariyat hollarda mansabga qattiq xirs qo‘yish, mol va qudratning oshib-toshib ketishi, hudbinlik oqibatida sodir bo‘ladi”.

Jaloliddin Rumiyning ma’naviy masnaviylari faqatgina psixologik jihatdan emas, balki falsafiy, diniy, ta’limiy, tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Masnaviyda inson kamolotida uchraydigan muammolar, qiyinchiliklarning sabab va oqibatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ularni tuzatishning ahloqiy jihatlari diniy tarafdan tushuntirib ko‘rsatilgan.

Rumiy psixologiyaning barcha sohalariga taalluqli o‘z qarashlarini ifodalagan. U psixologiya muammolarini bundan bir necha asrlar avval dolzarb hisoblagan bo‘lsa, hozirda ham bu muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Inson rivojlanishida uchraydigan muammolar yechimini esa g‘arb, umuman xorij psixologlaridan avval aytib o‘tgan.

Xulosa qilib aytganda nainki Jaloliddin Rumiyni hayot saboqlaridan ta’lim olish balki bugungi yosh avlod qalbida, xarakterida va ruhiyatida Rumiy hazratlari keltirib o‘tgan ruhiy kechinmalar bilan haohang bo‘lishni, ogoh bo‘lishni davrning o‘zi, global jahonning o‘zi bizdan talab qilmoqda. Shu o‘rinda o‘z-o‘zini anglash texnologiyasini zamonaviylashtirish, insonparvarlashtirish eng muhim dolzarb vazifadir.

Foydalaanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-tom. T.: O‘zbekiston, 2017 y

2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q /Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quamiz.- T.: O‘zbekiston, 1999.

3. Izbullaeva G.V. Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi / Mas’ul muharir S.S.Bulatov. – Toshkent: Fan, 2015. – 208 b

4. Rumiy Jaloliddin. Masnaviy hikoyalaridan darslar// 40 hikoyaga 40 sharx, 3-kitob (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: A. Xolmurod). – T.: “Muxarrir nashriyoti”, 2010. – 91

https://wordlyknowledge.uz